


## QASHQADARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 8 836,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,7 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 301,2 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 41,6 % ga kamayish kuzatildi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 8 534,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati, 109,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 720,1 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,7 %) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Muborak (110,5 %), G'uzor (107,2 %), Koson (106,7 %) va Nishon (105,8 %) tumanlarida qayd etildi.


**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayish kuzatilib 41,6 % ni va 301,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,4 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 8534,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-noyabr o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,5 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,6 % ga teng.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)**



**Hududlar kesimida chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari ulushi, (%)**



**Kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari**  
 **Yirik korxonalar**


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Koson (100,0 %), Kitob (100,0 %), Mirishkor (99,9 %) va Chiroqchi (99,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Viloyat bo'yicha chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Shahrisabz tumanida (19,2 %), Qarshi shahrida (8,8 %) va Muborak (5,2 %) tumanlarida kuzatilgan.

**Hududlar kesimida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi**

	<b>Yirik korxonalar (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>	<b>Kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>301,2</b>	<b>41,6</b>	<b>8 534,8</b>	<b>109,5</b>
<b>G‘uzor</b>	<b>3,3</b>	<b>88,2</b>	<b>336,7</b>	<b>107,4</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>0,8</b>	<b>10,5</b>	<b>433,6</b>	<b>104,0</b>
<b>Qamashi</b>	<b>0,8</b>	<b>9,8</b>	<b>608,9</b>	<b>102,6</b>
<b>Qarshi</b>	<b>1,4</b>	<b>77,7</b>	<b>355,1</b>	<b>101,0</b>
<b>Koson</b>	<b>0,4</b>	<b>4,5</b>	<b>827,2</b>	<b>107,8</b>
<b>Kitob</b>	<b>0,0</b>	<b>0,1</b>	<b>563,6</b>	<b>104,0</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>0,5</b>	<b>7,3</b>	<b>396,1</b>	<b>105,3</b>
<b>Muborak</b>	<b>14,2</b>	<b>96,7</b>	<b>263,2</b>	<b>111,3</b>
<b>Nishon</b>	<b>1,0</b>	<b>88,8</b>	<b>346,4</b>	<b>105,8</b>
<b>Kasbi</b>	<b>1,3</b>	<b>19,5</b>	<b>370,1</b>	<b>104,8</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>2,1</b>	<b>105,7</b>	<b>706,0</b>	<b>103,0</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>59,9</b>	<b>151,0</b>	<b>252,1</b>	<b>94,5</b>
<b>Yakkabog‘</b>	<b>10,1</b>	<b>-</b>	<b>457,2</b>	<b>101,3</b>
<b>Qarshi sh</b>	<b>202,3</b>	<b>33,7</b>	<b>2 108,2</b>	<b>129,5</b>
<b>Shahrisabz sh</b>	<b>3,1</b>	<b>29,1</b>	<b>510,4</b>	<b>105,2</b>

**Hududlar kesimida yirik korxonalar va kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



2019-yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2709,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,6 % ni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi eng yuqori ko'rsatkichlar Qarshi shahri (8 413,6 ming so'm), Shahrisabz shahri (3 700,5 ming so'm) va Mirishkor (3 345,6 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Shahrisabz (1 414,6 ming so'm), Qarshi (1 451,6 ming so'm) va G'uzor (1 682,4 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so‘m	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2 709,4</b>	<b>101,6</b>
<b>G‘uzor</b>	<b>1 682,4</b>	<b>105,1</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>2 977,7</b>	<b>100,2</b>
<b>Qamashi</b>	<b>2 264,1</b>	<b>99,1</b>
<b>Qarshi</b>	<b>1 451,6</b>	<b>98,7</b>
<b>Koson</b>	<b>2 926,4</b>	<b>104,3</b>
<b>Kitob</b>	<b>2 147,5</b>	<b>100,3</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>3 345,6</b>	<b>101,7</b>
<b>Muborak</b>	<b>3 224,1</b>	<b>108,3</b>
<b>Nishon</b>	<b>2 295,5</b>	<b>103,2</b>
<b>Kasbi</b>	<b>1 907,0</b>	<b>101,0</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>1 740,9</b>	<b>100,5</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>1 414,6</b>	<b>100,2</b>
<b>Yakkabog‘</b>	<b>1 784,9</b>	<b>100,9</b>
<b>Qarshi sh</b>	<b>8 413,6</b>	<b>102,1</b>
<b>Shahrisabz sh</b>	<b>3 700,5</b>	<b>101,9</b>

Jumladan, 2019-yilning yanvar-noyabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 % ni tashkil etib, 168,6 mlrd. so‘mga yetdi yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,4 % o‘shishga erishildi.


## QASHQADARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-noyabr)

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 371,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 94,0 % ga yetdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-noyabr oyi yakunlariga ko'ra, 1 546,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,1 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 65,2 % ni tashkil qilmoqda.

### Hududlar kesimida yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida yirik korxonalarining ulushi 34,8 % ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	<b>Jami</b> (mlrd. so‘m)	<b>O‘tgan</b> <b>yilning shu</b> <b>davriga</b> <b>nisbatan,</b> <b>%da</b>	<b>Yirik</b> <b>korxonalar</b> (mlrd. so‘m)	<b>O‘tgan</b> <b>yilning shu</b> <b>davriga</b> <b>nisbatan,</b> <b>%da</b>	<b>Kichik</b> <b>korxonalar</b> (mlrd. so‘m)	<b>O‘tgan</b> <b>yilning shu</b> <b>davriga</b> <b>nisbatan,</b> <b>%da</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	2371,5	93,8	825,1	73,6	1546,4	109,9
<b>G‘uzor</b>	11,2	58,5	0,2	47,8	11,1	58,8
<b>Dehqonobod</b>	4,5	28,6	-		4,5	28,7
<b>Qamashi</b>	42,1	2,0 m.	17,5	159,0 m.	24,6	117,9
<b>Qarshi</b>	110,8	86,2	19,8	39,0 m.	91,0	70,9
<b>Koson</b>	92,8	101,5	-	0	92,8	101,5
<b>Kitob</b>	92,7	133,1	-	3,4	92,7	133,2
<b>Mirishkor</b>	80,1	4,5 m.	52,8	0	27,3	152,0
<b>Muborak</b>	60,1	151,4	45,6	2,1 m.	14,5	82,1
<b>Nishon</b>	123,0	141,1	35,5	11,5 m.	87,5	100,4
<b>Kasbi</b>	61,8	3,9 m.	37,4	40,5 m.	24,4	154,6
<b>Chiroqchi</b>	47,9	45,5	-	47,3	47,9	45,5
<b>Shahrisabz</b>	20,5	55,2	0,3	63,9	20,2	55,1
<b>Yakkabog‘</b>	43,2	82,4	0,3	2,4 m.	43,0	82,1
<b>Qarshi sh</b>	1467,5	84,3	614,4	56,1	853,1	131,8
<b>Shahrisabz sh</b>	113,1	132,2	1,3	34,3	111,9	136,6



**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**

Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Mirishkor (4,5 m.) , Kasbi (3,9 m.) va Qamashi (2,0 m.), tumanlarida qayd etildi. Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari esa Dehqonobod (28,6 %) va Chiroqchi (45,5 %), Shahrisabz (55,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi  
bo'limi  
Tel.: (71) 230-83-91